

JADIDLAR DAVRIDA MATBUOT FAOLIYATI VA RIVOJI

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
2-sonli Toshkent Akademik litseyi oliv toifali tarix fani o'qituvchisi
Sobirov Zafar Karimovich*

Annotatsiya: Maqolada XIX asrning II-yarmida vujudga kelayotgan jadidchilik harakatini asosiy quroli bo'lmish matbuot organlarining vujudga kelishi va faoliyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: XII chaqiriq, VI sessiya, Jadidlar, Matbuot, inqilob, Rossiya Imperiyasi, Fuqaho jamiyati, ma'ripatvar, fevral inqilobi, istiqlol

Abstract: The article describes the emergence and activity of the press bodies, which were the main tool of the revolutionary movement that arose in the second half of the 19th century.

Key words: 12th convocation, 6th session, Jadidlar, Press, revolution, Russian Empire, Civil society, education, February revolution, independence

Аннотация: В статье описывается возникновение и деятельность органов печати, которые были основным инструментом революционного движения, возникшего во второй половине XIX века.

Ключевые слова: 12-й созыв, 6-я сессия, Джадидлар, Пресса, революция, Российская империя, Гражданское общество, образование, Февральская революция, независимость.

1991-yilning 31-avgustida oliy kengashning XII chaqiriq VI sessiyasida uzoq kutilgan voqeal O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lol qildi. O'zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo'lmashagini hayotning o'zi ko'rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqlolning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko'rди.

Istiqlol sharofati bilan xalqimizning milliy-ma'naviy merosini tiklash va yangilash hamda xalqimiz ongiga yetkazish va turmushiga singdirish muhim vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan keyin jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan xissasini o'rganishga qiziqishning ortib borishi eng muhimi, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning jadidchilik harakati tarixi va jadidlarga bergen baholari ,keyingi paytda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda chop etilgan yangi adabiyot va maqolalarda alohida e'tibor berilgan. Jumladan,jadidlarning milliy matbuot (gazeta va jurnal)organlarini tashkil etish va bu sohani yanada rivojlantirish borasida olib borgan faoliyatları keng o'rganilmoqda.

Jadidlar xalq orasida o'zlarining ilg'or g'oyalarini tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bilishib bu sohani faoliyatini keskin jonlantirishga harakat qilishgan. Jumladan olib borilgan sa'y-harakatlari bilan Toshkentda 1906-yil 27-iyunda "Taraqqiy" gazetasi Ismoil

Obidov tomonidan, "Xurshid" gazetasi 1906-yil Munavvar Qori boshchiligidan, "Tujjor " 1907-yil Saidkarimboy Saidazimboy tomonidan, 1914-yil "Sadoi Turkiston" Ubaydulla Asadullaxo'jayev , 1917-yil Munavva Qori tomonidan "Najot" gazetasi ,1917-yil Abdulla Battol tomonidan "Shuroi Islom" gazetasi ,Abdurahmon Sayyoh tomonidan 1915-1918-yillarda "Al-Isloh " gazetasi, 1917-yilda "Chayon " va "Izhor-ul-haq" gazetalari Mulla Sadreddinxo'ja tomonidan kabi gazeta va jurnallar chop etilgan. Jadidlar tomonidan Toshkent bilan bir qatorda boshqa hududlarda ham matbuot sohasini rivojlantishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Natijada Farg'onada ham bir qator yutuqlarga erishildi Jumladan: Obidjon Mahmudov tomonidan 1914-yil "Sadoi Farg'ona" , "Farg'ona nidosi" , "Tirik so'z" nomli gazeta va jurnallar ,Samarqandda 1913-yil Maahmudho'ja Behbudiy tomonidan "Samarqand" gazetasi,1917-yilda esa "Oina"jurnali , Qo'qonda esa 1917-yil B. Soliyev tomonidan "El bayrog'l" gazetasi,Obidjon Mahmudov tomonidan 1915-yil "Tirik so'z", Xamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan 1917-yil "Kengash" Ashurali Zohidiy tomonidan 1917-yil "Yurt" kabi gazeta va jurnallarning chop etilishi ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishida samarali vosita va millat ehtiyojiga aylandi.

1917-yil fevral inqilobi davrida sodir bo'lgan voqealar faqatgina Rossiya yoki Turkistona emas, balki butun dunyo hamjamiatiga katta ta'sir o'tkazadi. Ro'y bergan geosiyosiy o'zgarishlar o'sha davrda Rossiya imperiyasi tarkibiga kiruvchi Turkiston hududi siyosiy va milliy g'oyalar hamjihatligi yoki qarama-qarshiligi,ommaviy harakatlarning kuchli va o'ziga xos to'qnashuv maydoniga aylanishiga ,jadidlarning xalqning oldingi saflarida bo'lib ,yagona maqsad yo'lida xalq ommasiga taraqqiyot yo'lini ko'rsatishga intilganligini shu davr milliy matbuoti sahifalaridagi materiallar orqali keng ochib berish mumkin. Jadidlar tomonidan chop etilayotgan gazeta va jurnallar mazmunan boy va ko'tarilgan har bir masala chuqur yoritilgannligi bilan ajralib turgan. Bunga misol qilib "Fuqaho jamiyati"ning nashri bo'lgan "Izhor ul-haq" jurnalining 1918-yil 14-martda Mulla Rahimxon imzosi bilan "masala" deb nomlangan va 13-aprel Sobirjon G'anizoda imzosi bilan "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiy yo'li" sarlavhali maqolalarini to'liq keltirib o'tamiz. Zero ,hozirgi kunda ja miyatning ijtimoiy-siyosiy ,madaniy hayotida dinning o'rni va vazifasi masalasiga alohida ahamiyat berilayotgan bir davrda , yaqin o'ztmishimizdagi taraqqiyparvar shaxslar ,din arboblarining faoliyati ,ularning ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari ,shu bilan birga o'lka muslmon aholisining dunyoqarashi, diniy -ahloqiy qadriyatlarining shakllanishiga ,siyosiy onging o'sishiga ulomolarning ta'sirini o'rganishda "Izhor-ul-haq" jurnalining to'liq mazmunini tadqiq qilish juda muhim hisoblanadi. Tarixiy jarayonni adolatli yoritish ,ularga to'g'ri baho berish ,qolaversa,taraqqiyparvar ulomolar faoliyatini manbalar orqali o'rganishni talab etadi. Shu davrdagi milliy matbuot organlarining ma'lumotlari qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.Mahalliy xalqning fan-texnika yangiliklarini egallashi ,uni o'zlashtirishi,millat manfaatlarini himoya qilishi uchun matbuat yangiliklari juda muhim hisoblangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,jadid matbuoti va boshqa nashrlar O'zbekiston madaniyati tarixshunosligining noyob qismi hisoblanadi.XX asrning dastlabki yillardagi milliy adabiyotlarda,asosan matbuotdagi maqola va ocherklarda Turkistondagi madaniy-ma'rifiy

jarayonlarning yoritilishi bir necha yo'nalishga qaratildi. Zero ularda aholining ijtimoiy-siyosiy saviyasini oshirish, Turkiston iqtisodi va madaniyatini ravnaq toptirish,kasbiy mahorati yuksak ,bilimli ,ijtimoiy faol insonlarga katta ehtiyoj sazayotgan o'lka uchun milliy mutaxassislarni tayyorlash ,bu ehtiyojni zamonaviy maorif muassasalari orqali qondirish yoki ularni ta'lim olish uchun chetga yuborish,o'quv muassasalarini tubdan isloh etish, ta'lim sohasida tabiiy fanlar chuqur o'rgatilishi lozimlig millat tarbiyashchilari bo'lgan -xotin-qizlarni ma'rifatli qilish ,zamonaviy ta'lim va taraqqiyotga erishish uchun ko'plab tillarni o'rganish ,madaniy-ma'rifiy tadbirlarni kengaytiirish zaruriyati bosh mavzular qilib belgilab olingan edi.